

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

RASULOVA NAFISA RASHIDOVNA

**TAJRIBAVIY KIMYOTERAPIYADAN SO‘NG TIMUS VA SUYAK
KO‘MIGIDAGI SITOMORFOLOGIK O‘ZGARISHLAR, ULARNING
BIOKORREKSIYASI**

14.00.02 – Morfologiya

**Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Rasulova Nafisa Rashidovna

Tajribaviy kimyoterapiyadan so‘ng timus va suyak ko‘migidagi
sitomorfologik o‘zgarishlar, ularning biokorreksiyasi..... 3

Расулова Нафиса Рашидовна

Цитоморфологические изменения тимуса и костного мозга после
экспериментальной химиотерапии и их биокоррекция..... 23

Rasulova Nafisa Rashidovna

Cytomorphological changes in the thymus and bone marrow after
experimental chemotherapy and their biocorrection..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 50

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

RASULOVA NAFISA RASHIDOVNA

**tajribaviy kimyoterapiyadan so‘ng timus va suyak ko‘migidagi sitomorfologik
o‘zgarishlar, ularning biokorreksiyasi**

14.00.02 – Morfologiya

**Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Tib5775 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bsmi.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Temirova Nazokat Rustamovna

tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Rasulov Xamidulla Abdullaevich

tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ishigov Ibragim Agaevich

tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 21 iyul soat 11³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (+998-95) 911-00-50. e-mail: info@bsmi.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__ raqami bilan ro'yxatga olingan), (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (+998-95) 911-00-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 9 iyul kuni tarqatildi.

(2026 yil 9 iyuldagi __ raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.J. Teshayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

N.Q. Dustova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

M.R. Mirzoyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) ning maʼlumotlariga koʻra, 2022-yilda saraton kasalligiga chalingan bemorlarning soni taxminan 20 million kishini tashkil etgan va shu yilda saraton kasalligi bilan bogʻliq oʻlim holatlari qariyb 9,7 millionga yetgan¹. Onkologik kasalliklar bilan ogʻrigan bemorlar soni 2050-yilga borib 77% ga oshishi, yaʼni 35 millionga yetishi bashorat qilinmoqda.

Dunyoda saraton kasalligida kimyoterapiya usulini qoʻllash inson tanasiga oʻsmaga qarshi vositalarni kiritish orqali saratonga qarshi kurashishning yuqori texnologiyali zamonaviy usulidir. Kimyoterapiyaning asosiy maqsadi bemorning tanasiga kimyoviy preparatlar taʼsiri bilan saraton hujayralarini butunlay yoʻq qilishdir. Tibbiyotda soʻnggi oʻn yilliklarda onkologik kasalliklar sonining koʻpayishi oqibatida onkologik hujayralarga taʼsir qiladigan yangi vositalar va usullarni hamda kimyoterapiya jadvallarini ishlab chiqishni talab qiladi. «...oʻsmani davolashda erishilgan yutuqlar bilan birga oʻtkazilgan davo muolajalarining toksikligi ham juda katta muammodir...»²

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, xususan, onkologik kasalliklarda kimyoterapiya samaradorligini oshirish uchun turli xildagi sitostatik preparatlarni qoʻllash oqibatida kelib chiqadigan immun tizimning ayniqsa, timus va suyak koʻmigining morfofunktsional buzilishi bilan bogʻliq boʻlgan asoratlarni kamaytirish, oldini olish shuningdek, kimyoterapiya usullarini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yoʻnalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat koʻrsatish darajasini yangi bosqichga koʻtarishda «...aholiga sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida birlamchi tibbiy xizmatni mahallalarda tashkil etish uchun zarur choralarni koʻrish...»³ kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda saraton kasalliklarida kimyoterapiyani qoʻllash oqibatida timus va suyak koʻmigi hujayra strukturaviy tuzilmalari tarkibining morfologik va sitomorfometrik oʻzgarishlarini baholash, profilaktikasini ishlab chiqish, hamda korreksiya tadbirlarini takomillashtirish orqali kimyoterapiya asoratlari natijasida yuzaga keladigan nogironlik koʻrsatkichlarini kamaytirish imkonini beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida», 2017-yil 4-apreldagi PQ-2866-son «2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam koʻrsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida», 2024-yil 21-maydagi PQ-183-son «Onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy yordam koʻrsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qilgan.

¹<https://news.un.org/ru/story/2024/02/1449057>

² Шанина Е. В., Брёкер Ф., Лысов Н. А., Шанин В. Ю., Пономарева Ю. В., Супильников А. А. Индуцированные химиотерапией широкореактивные аутоантитела в лечении злокачественных новообразований. Вестник медицинского института «Реавиз»: реабилитация, врач и здоровье. 2023. №3. С.104-109.

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida» gi farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Kimyoterapevtik preparatlar organizmga kiritilganda nafaqat o‘sma hujayralariga, balki tez proliferatsiyalanuvchi normal hujayralarga ham ta’sir ko‘rsatib, immun tizim va gemopoez jarayonlarida chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Jumladan, sitotoksik ta’sir natijasida hujayra proliferatsiyasi susayadi, apoptoz jarayonlari faollashadi hamda oksidlovchi stress va yallig‘lanish mediatorlari ishlab chiqarilishi ortadi. Bu esa T limfositlar differentsiatsiya sining buzilishi, immun javobning susayishi va organizmda immunosuppressiv holat rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, kimyoterapiya STAT-3 va boshqa signal yo‘llarini faollashtirish orqali hujayralarning apoptozga chidamliligini o‘zgartiradi va to‘qimalarda regeneratsiya jarayonlarini izdan chiqaradi (Principe DR, et al., 2022; Sharma A. et al., 2024).

Xorij olimlari tomonidan timus va suyak ko‘migining morfologik va funksional xususiyatlari, ularning turli patologik sharoitlarda o‘zgarishlari keng o‘rganilgan. Xususan, timusning yoshga bog‘liq involyutsiyasi va immun funksiyasi (Savino W. et al., 2016; Gruver A.L. et al., 2017), suyak ko‘migining gemopoetik faoliyati va sitotoksik ta’sirlarga javobi (Kuter D.J., 2018; Lichtman M.A., 2017) o‘rganilgan.

Rossiya Federatsiyasi va MDH davlatlarida Motalkina M. va hammualliflar (2016) tomonidan eksperimental sharoitda suyak ko‘migi hujayralarining sitomorfologik xususiyatlari, Volkov V.P. (2018) tomonidan timusning morfologik o‘zgarishlari, Kovina M.V. va hammualliflar (2019) tomonidan suyak ko‘migi hujayralarining regenerativ xususiyatlari, Dolgoplov I.S., Rykov M.Y. (2024) tomonidan timus patologiyasi va uning diagnostik xususiyatlari, Shelikhova L. va hammualliflar (2026) tomonidan gemopoez va transplantatsiyadan keyingi immun tiklanish jarayonlari o‘rganilgan.

O‘zbekistonda ham timus va suyak ko‘migining morfologik xususiyatlari, turli patologik va eksperimental sharoitlarda yuzaga keladigan o‘zgarishlari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Tillashayxov M.N., Kamishov S.V. (2018) tomonidan bachadon bo‘yni rakida hujayra immuniteti tizimidagi o‘zgarishlar, Azimova S. B. va Xasanov B. B. (2021) tomonlaridan postnatal ontogenezdagi toksik gepatitda chaqaloq kalamushlar timusidagi o‘zgarishlarni va Asadova N.H. (2024) tomonidan surunkali nur ta’sirida biostimulyator fonida timusning morfometrik o‘zgarishlari o‘rganilgan.

So‘nggi yillarda tabiiy biologik faol moddalar asosidagi biokorreksiya usullariga qiziqish ortib bormoqda. Xususan, oq karrak (tatarnik) o‘simligi tarkibida flavonoidlar, fenolik birikmalar va boshqa biologik faol moddalarning mavjudligi uning kuchli antioksidant va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu birikmalar hujayra darajasida oksidlovchi stressni kamaytirish, hujayra membranalarini barqarorlashtirish va regeneratsiya jarayonlarini faollashtirish xususiyatiga ega (Efferth T., 2017; Salehi B. et al., 2019). Shunga qaramay, ushbu o‘simlik ekstraktining kimyoterapiya ta’sirida shikastlangan timus va suyak ko‘migiga sitomorfologik hamda immunogistokimyoviy ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida, kimyoterapiya ta’sirida timus va suyak

ko'migida yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlar ma'lum darajada o'rganilgan bo'lishiga qaramay, ushbu ikki markaziy immun organining sitomorfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy xususiyatlarini kompleks, qiyosiy va o'zaro bog'liq holda o'rganish yetarlicha amalga oshirilmagan. Ayniqsa, kimyoterapiya sharoitida ularning regeneratsiya imkoniyatlari va biokorreksiya yo'llari, shuningdek, hujayra darajasidagi o'zgarishlarning aniq mexanizmlari yetarli darajada ochib berilmagan. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda aniq amaliy va nazariy tavsiyalar ishlab chiqilmaganligi ushbu dissertatsiya doirasida hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb ilmiy muammoni tashkil etgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat tibbiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (05.2024.PhD.192) «COVID-19 infeksiyasidan keyin Buxoro mintaqasi aholisi sog'lig'iga ta'sir qiluvchi organizmning patologik holatini erta aniqlash, davolash va oldini olishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish (2022-2026 yy.)» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi tajribaviy kimyoterapiyadan so'ng timus va suyak ko'migidagi morfologik, sitomorfometrik, immunogistokimyoviy o'zgarishlarni aniqlash va oq karrak o'simligi ekstrakti bilan biokorreksiya samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

me'yorda yangi tug'ilgan, 2 va 4 oylik oq zotsiz kalamushlarning timus va suyak ko'migining morfologik va sitomorfometrik parametrlarini o'rganish;

kimyoterapiyadan so'ng oq zotsiz kalamushlarning timus va suyak ko'migi to'qimalarining tarkibiy qismlarining morfologik ko'rsatkichlarini aniqlash;

tajribaviy kimyoterapiyadan so'ng oq zotsiz kalamushlarda oq karrak (tatarnik) o'simligi ekstrakti bilan biokorreksiya qilingandan keyin timus va suyak ko'migidagi morfologik va sitomorfometrik xususiyatlarini o'rganish;

nazorat guruhidagi hamda tajribaviy kimyoterapiya va korreksiyadan keyingi oq zotsiz kalamushlarda timusdagi immunogistokimyoviy ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash va baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida yangi tug'ilgan, 2 va 4 oylik bo'lgan 203 ta oq zotsiz kalamushlar o'rganilgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida laboratoriya havvonlarining timus va suyak ko'migidan olingan gistologik va sitologik materiallar xizmat qilgan.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqotni o'tkazish va maqsadga erishish uchun eksperimental, morfologik, sitomorfometrik, immunogistokimyoviy va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor tajribaviy kimyoterapiyadan keyingi davrda timus parenximasida kortikal qavatning siyraklashishi, timositlar sonining kamayishi, ayrim hujayralarda piknoz va karioreksis belgilari, stromal komponentning nisbatan kuchayishi hamda medullar sohaning kengayishi hamda Gassal tanachalarining strukturasida distrofik o'zgarishlar va limfoid to'qimada dezorganizatsiya belgilari aniqlangan;

ilk bor kimyoterapiya ta'siri natijasida suyak ko'migida mieloid, eritroid va limfoid qatorlar hujayra tarkibining nomutanosibliigi, megakariositlar soni va faolligining o'zgarishi hamda M/E indeksning buzilishi orqali gemopoezning supressiv va displastik o'zgarishlari morfometrik jihatdan isbotlangan;

ilk bor oq karrak ekstrakti qo'llanilganda timusda kortikal va medullyar zonalar strukturasining qisman tiklanishi, kapsula va trabekulalar qalinligining me'yorlashuvi, timositlar zichligining ortishi hamda suyak ko'migida mieloid va eritroid qatorlar muvozanatining tiklanishi va M/E indeksning fiziologik ko'rsatkichlarga yaqinlashuvi qayd etilgan;

ilk bor kimyoterapiya ta'siridan so'ng timus to'qimasida CD-4 va CD-138 markerlari ekspressiyasining yoshga bog'liq xususiyatlari aniqlanib, yuvenil yoshda CD-4 pozitiv hujayralar sonining nisbatan yuqori ekanligi, CD-138 ekspressiyasi darajasining pastligi ko'rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mazkur ilmiy tadqiqot natijalari eksperimental kimyoterapiya ta'sirida timusning mikroskopik tuzilishini hamda uning tarkibiy o'zgarishlarini o'rganish natijalari bezda yuzaga keladigan patologik murakkab mexanizmini ochib berish imkonini bergan;

eksperimental kimyoterapiya ta'siri natijasida yuzaga kelgan suyak ko'migidagi sitomorfologik o'zgarishlarni o'rganish mexanizmini ochib berish imkonini bergan;

tajriba hayvonlarida kimyoterapiya ta'sirida timus va suyak ko'migining morfometrik ko'rsatkichlariga ta'siri mavjudligini aniqlash organizm uchun yetarlicha xavf darajasiga ega ekanligini ko'rsatishga asos bo'lgan;

kimyoterapiyadan keyin oq karrak (tatarnik) o'simligi ekstraktini qo'llash asosida timus va suyak ko'migi morfologiyasini o'rganish natijalariga ko'ra, tajribadagi oq zotsiz kalamushlarda toksik moddalarni va ularning organizmga ta'siri darajasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy-tadqiqot ishida foydalanilgan zamonaviy, bir birini to'ldiruvchi tajribaviy, morfologik, immunogistokimyoviy, statistik usullar qo'llanilganligi, yetarli miqdordagi laboratoriya hayvonlaridan foydalanilganligi, olingan natijalarning nazariy hamda amaliy jihatdan tasdiqlanganligi, ularning xorijiy va vatandosh tadqiqotchi olimlar tomonidan olingan ma'lumotlar bo'yicha taqqoslaganda ishonchliligi, keltirilgan xulosalar asoslanganligi, shuningdek vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati timus va suyak ko'migining morfologik tuzilishi, uning tarkibiy o'zgarishlarini o'rganish natijalari, shuningdek kimyoterapiyadan keyin timus va suyak ko'migida yuzaga keladigan jarayonlarining murakkab mexanizmini ochishga yordam berganligi, bu esa organizmda kechadigan jarayonlardagi salbiy o'zgarishlarni aniqlash imkonini yaratganligi, timus morfologiyasini o'rganish va uning tarkibiy o'zgarishlari organizmda unga tobe organlar faoliyatini izdan chiqishi oqibatida ichki a'zolarida yuzaga keladigan jarayonlarning murakkab mexanizmini ochib berishni tushunishda yangicha yondoshilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati kelib chiqishi mumkin bo'lgan patologik holatlarni erta aniqlash va oldini olish uchun dalillarga asoslangan usullarni ishlab chiqish uchun eksperimental asos yaratilganligi, ayrisimon bez va suyak ko'migi faoliyatini izdan chiqishi bezdagi hujayralar tuzilmalarida yashirin patomorfologik buzilishlarni morfometrik o'rganish zarurati va samaradorligini oshirish kabi muhim vazifalarni ochishga yordam berganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Tajribaviy kimyoterapiyadan so‘ng timus va suyak ko‘migidagi sitomorfologik o‘zgarishlar, ularning biokorreksiyasi” mavzusidagi ilmiy yangilikni boshqa sog‘liqni saqlash muassasalariga joriy etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

birinchi ilmiy yangilik: ilk bor tajribaviy kimyoterapiyadan keyingi davrda timus parenximasida kortikal qavatninig siyraklashishi, timositlar sonining kamayishi, ayrim hujayralarda piknoz va karioreksis belgilari, stromal komponentning nisbatan kuchayishi hamda medullar sohaning kengayishi hamda Gassal tanachalarining strukturasida distrofik o‘zgarishlar va limfoid to‘qimada dezorganizatsiya belgilari aniqlanganligi bo‘yicha takliflar Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Ekspert kengashi tomonidan 2025-yil 5-mayda 25-m/126-son bilan tasdiqlangan “Tajribaviy kimyoterapiya ta’sirida ayrisimon bezdagi morfologik o‘zgarishlarni aniqlash usuli” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Buxoro filialining 9-iyun 2025-yildagi 45-sonli hamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filialining 27-iyun 2025-yildagi 55-sonli buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan (Sog‘liqni Saqlash vazirligi huzuridagi ilmiy texnik kegashining 2026-yil 5-martdagi 04/05-son xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* tajribaviy kimyoterapiyadan so‘ng timus epiteliy hujayralari va to‘qimalardagi patologik jarayonlarning qiyosiy tavsifi ochib berilganligi og‘ir asoratlarni rivojlanishini oldini olishda profilaktik va davolovchi chora tadbirlarni ishlab chiqishni takomillashtirishga imkon bergan. *Iqtisodiy samaradorligi:* tajribaviy kimyoterapiyadan so‘ng yuz beradigan o‘zgarishlar va ayrisimon bez hujayralarining tuzilmalaridagi morfologik va morfometrik o‘zgarishlar tufayli rivojlanadigan patologik holatning erta inobatga olinishi davolash samaradorligini oshiradi, natijada bemorlarga sarflanadigan byudjet mablag‘lari 980000 so‘mga iqtisod qilish imkonini bergan va iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. *Xulosa:* Timusdagi patologik o‘zgarishlarni erta aniqlash og‘ir asoratlarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirishga xizmat qildi hamda byudjet mablag‘larini tejash imkonini berdi.

ikkinchi ilmiy yangilik: ilk bor kimyoterapiya ta’siri natijasida suyak ko‘migidagi mieloid, eritroid va limfoid qatorlar hujayra tarkibining nomutanosibligi, megakariositlar soni va faolligining o‘zgarishi hamda M/E indeksning buzilishi orqali gemopoezning supressiv va displastik o‘zgarishlari morfometrik jihatdan isbotlanganligi bo‘yicha takliflar Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Ekspert kengashi tomonidan 2025 yil 5 mayda 25-m/126-son bilan tasdiqlangan «Tajribaviy kimyoterapiya ta’sirida ayrisimon bezdagi morfologik o‘zgarishlarni aniqlash usuli» nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Buxoro filialining 9-iyun 2025-yildagi 45-sonli hamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filialining 27-iyun 2025-yildagi 55-sonli buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan (Sog‘liqni Saqlash vazirligi huzuridagi ilmiy texnik kegashining 2026-yil 5-martdagi 04/05-son xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* tajribaviy kimyoterapiyadan so‘ng timus epiteliy hujayralari va to‘qimalardagi patologik jarayonlarning qiyosiy tavsifi ochib berilganligi og‘ir asoratlarni rivojlanishini oldini olishda profilaktik va davolovchi chora tadbirlarni ishlab chiqishni takomillashtirishga imkon bergan. *Iqtisodiy samaradorligi:* tajribaviy kimyoterapiyadan

so'ng yuz beradigan o'zgarishlar va timus hujayralarining tuzilmalaridagi morfologik va morfometrik o'zgarishlar tufayli rivojlanadigan patologik holatning erta inobatga olinishi davolash samaradorligini oshiradi, natijada bemorlarga sarflanadigan byudjet mablag'lari 980000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan va iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. *Xulosa:* Suyak ko'migidagi gemopoetik buzilishlarni o'z vaqtida baholash profilaktik va terapevtik choralarni takomillashtirib, davolash xarajatlarini kamaytirishga yordam berdi.

uchinchi ilmiy yangilik: ilk bor oq karrak ekstrakti qo'llanilganda timusda kortikal va medullar zonalar strukturasining qisman tiklanishi, kapsula va trabekulalar qalinligining me'yorlashuvi, timositlar zichligining ortishi hamda suyak ko'migida mieloid va eritroid qatorlar muvozanatining tiklanishi va M/E indeksning fiziologik ko'rsatkichlarga yaqinlashuvi qayd etilganligi bo'yicha takliflar Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Ekspert kengashi tomonidan 2025 yil 5 mayda 25-m/126-son bilan tasdiqlangan «Tajribaviy kimyoterapiya ta'sirida ayrisimon bezdagi morfologik o'zgarishlarni aniqlash usuli» nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Buxoro filialining 9-iyun 2025-yildagi 45-sonli hamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filialining 27-iyun 2025-yildagi 55-sonli buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan (Sog'liqni Saqlash vazirligi huzuridagi ilmiy texnik kegashining 2026-yil 5-martdagi 04/05-son xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* tajribaviy kimyoterapiyadan so'ng ayrisimon bez epiteliy hujayralari va to'qimalardagi patologik jarayonlarning qiyosiy tavsifi ochib berilganligi og'ir asoratlar rivojlanishini oldini olishda profilaktik va davolovchi chora tadbirlarni ishlab chiqishni takomillashtirishga imkon bergan. *Iqtisodiy samaradorligi:* tajribaviy kimyoterapiyadan so'ng yuz beradigan o'zgarishlar va ayrisimon bez hujayralarining tuzilmalaridagi morfologik va morfometrik o'zgarishlar tufayli rivojlanadigan patologik holatning erta inobatga olinishi davolash samaradorligini oshiradi, natijada bemorlarga sarflanadigan byudjet mablag'lari 980000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan va iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. *Xulosa:* Oq karrak ekstraktining tiklovchi ta'siri patologik asoratlarni kamaytirish va bemorlarni reabilitatsiya qilish samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy tejamkorlikka erishishni ta'minladi.

to'rtinchi ilmiy yangilik: ilk bor kimyoterapiya ta'siridan so'ng timus to'qimasida CD-4 va CD-138 markerlari ekspressiyasining yoshga bog'liq xususiyatlari aniqlanib, yuvenil yoshda CD-4 pozitiv hujayralar sonining nisbatan yuqori ekanligi, CD-138 ekspressiyasi darajasining pastligi ko'rsatilganligi bo'yicha takliflar Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Ekspert kengashi tomonidan 2025 yil 5 mayda 25-m/126-son bilan tasdiqlangan «Tajribaviy kimyoterapiya ta'sirida ayrisimon bezdagi morfologik o'zgarishlarni aniqlash usuli» nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Buxoro filialining 9-iyun 2025-yildagi 45-sonli hamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filialining 27-iyun 2025-yildagi 55-sonli buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan (Sog'liqni Saqlash vazirligi huzuridagi ilmiy texnik kegashining 2026-yil 5-martdagi 04/05-son xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* tajribaviy kimyoterapiyadan so'ng timus epiteliy hujayralari va to'qimalardagi patologik jarayonlarning qiyosiy tavsifi ochib

berilganligi og‘ir asoratlar rivojlanishini oldini olishda profilaktik va davolovchi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni takomillashtirishga imkon bergan. *Iqtisodiy samaradorligi*: tajribaviy kimyoterapiyadan so‘ng yuz beradigan o‘zgarishlar va timus hujayralarining tuzilmalaridagi morfologik va morfometrik o‘zgarishlar tufayli rivojlanadigan patologik holatning erta inobatga olinishi davolash samaradorligini oshiradi, natijada bemorlarga sarflanadigan byudjet mablag‘lari 980000 so‘mga iqtisod qilish imkonini bergan va iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. *Xulosa*: Immunogistokimyoviy markerlarning yoshga oid xususiyatlarini aniqlash individual yondashuv asosida samarali davolash choralarini qo‘llash va tibbiy xarajatlarni qisqartirish imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan 1 ta xalqaro va 3 ta mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 1 tasi xorijiy va 2 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xotima, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kimyoterapiyadan so‘ng timus va suyak ko‘migi to‘qimalari tarkibiy qismlarining morfologik va immunogistokimyoviy ko‘rsatgichlari va oq karrak o‘simligi bilan biokorreksiyasi samaradorligiga yangicha yondashuv (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida kimyoterapiyaning ahamiyati va asoratlarining zamonaviy talqini, timus to‘qimasining postnatal ontogenezdagi me‘yoriy morfologik xususiyatlari, suyak ko‘migi to‘qimasi tarkibiy qismlarining me‘yoriy sitomorfometrik va immunogistokimyoviy ko‘rsatgichlari haqidagi ilmiy qarashlar va dorivor o‘simliklarning onkologiyada foydalanish samaradorligi haqidagi zamonaviy ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Tadqiqot materiallari va usullari» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot materiallari va usullari batafsil bayon etilgan. Tadqiqot yangi tug‘ilgan, 2 va 4 oylik jami 203 ta oq zotsiz kalamushlarda me‘yoriy vivarium sharoitida o‘tkazilgan. Tajribaning boshida barcha kalamushlar bir hafta davomida karantinda bo‘lib, somatik yoki yuqumli kasalliklarni istisno qilingandan so‘ng, kuniga 3 mahal ovqatlanish bilan odatdagi vivarium rejimiga o‘tkazilgan.

Hayvonlar 3 guruhga ajratilgan:

I guruh – yangi tug‘ilgan, 2 va 4 oylik nazorat (n=73); II guruh – eksperimental teri saratoni chaqirilib, kimyoterapiya qabul qilgan guruh (n=68); III guruh – kimyoterapiya

qabul qilgan va biokorreksiya bilan davolangan kalamushlar (n=62).

Tadqiqotda oq zotsiz kalamushlarda eksperimental teri saratoni chaqirish uchun kimyoviy kanserogen sifatida 7,12-dimetilbenzantrazen (DMBA) qo'llanilgan (Iversen, O.H. 1973). Tajribada DMBA 0,5% li ishchi eritma ko'rinishida ishlatilgan. Eksperimental modelni yaratishdan oldin kalamushlarning bel sohasidagi terini qoplagan tuki ehtiyotkorlik bilan qirqilib, teri yuzasi mexanik shikastlanmaganligiga ishonch hosil qilingandan so'ng 0,5% li DMBA eritmasidan 0,2-0,5 ml miqdordagi preparat steril paxta-tampon yordamida tuklardan tozalangan teriga bir xil qavatda surtilgan. DMBA haftasiga 2-3 marotaba qo'llanib, hayvonlar har bir muolajadan keyin 5-10 daqiqa davomida alohida qafaslarda saqlanib, preparatning yalab qo'yilishining oldi olingan.

DMBA preparatining takroriy qo'llanishi epidermisda proliferatsiyaning kuchayishi, keratinizatsiya jarayonining buzilishi va o'sma jarayoniga xos morfologik o'zgarishlari tasdiqlangach II va III guruh kalamushlarida kimyoterapiya kurslari o'tkazilgan. Kimyoterapiya uchun tanlangan preparat sifatida paklitaksel eritmasi qo'llanilgan. Paklitakselning ishchi dozasini aniqlashda kalamushlarning tana massasi, fiziologik ko'rsatkichlari va kimyoterapiya yuklamasini xavfsiz darajada ushlab turish talablari hisobga olingan. Shunga ko'ra preparat 0,2 mg/kg dozasida belgilanib, doza hayvonning haqiqiy tana massasi asosida individual tarzda qayta hisoblangan. Preparatning yuborish yo'li sifatida tomir ichiga (vena orqali) kiritish usuli tanlangan bo'lib, bu usul paklitakselning tizimli so'rilishi, qon oqimi orqali o'simta o'choqlariga tez yetib borishi va sitotoksik ta'sirning barqaror bo'lishiga imkon bergan.

III guruh hayvonlarida kimyoterapiyadan keyingi davrda biokorreksiya uchun oq karrak (*Onopordum acanthium*) ekstrakti qo'llanilgan. Oq karrak (tatarnik) o'simligi ekstrakti qo'llanishi uning antioksidant, immunomodulyator, gepatoprotektiv, shuningdek yallig'lanishga qarshi ta'sirlarga ega (Karomatov I.D. va hammual., 2017). Ushbu ekstrakt kimyoterapiya tufayli yuzaga kelgan to'qimalardagi degenerativ o'zgarishlar va immun tizimdagi disbalansni kamaytirish uchun tanlangan. Suyuq fitopreparat tanlanganligi uning tez so'rilishi, dozalashning qulayligi va biologik o'zlashtirilishining yuqoriligi bilan izohlangan.

Barcha biologik mikroobyektlar dasturiy ta'minotga ega HL-19 modelidagi trinokulyar mikroskop (Xitoyda ishlab chiqarilgan) yordamida ko'rilgan. Olingan organdagi o'lchamlar okulyar-mikrometrvinovkasi yordamida MOV-1,15x, obyektning lineykasi, okulyarning nuqtachali setkasi, kesma standart yuzasidagi okulyar tutqichi yordamida ($0,074 \text{ mm}^2$) olingan va QuPath-0.4.0.ink. dasturi yordamida morfometrik tekshiruvlar amalga oshirilgan. Tadqiqot ishida timus to'qimasidagi quyidagi ko'rsatkichlar tanlab olingan: timus kapsula qalinligi (darvoza sohasida, oldingi qismida, orqa qismida – mkm), timus trabekula qalinligi (kapsula osti sohasida va markaziy qismida – mkm), timus trabekula uzunligi (mkm), timus trabekula arteriolalari qalinligi (proksimal va distal arteriolalarda, qobiq trabekulalaridagi arteriolalarda – mkm), timus trabekula venulalari qalinligi (proksimal va distal venulalarda, qobiq trabekulalaridagi venulalarda – mkm), timositlar va limfositlar soni: po'stloq sohasidagi timositlar soni (1 mm^2 doirasida) va mag'iz sohasidagi timositlar soni (1 mm^2 doirasida), suyak ko'migida: miyeloid, eritroid qator hujayralar, limfoid hujayralar va megakariositlar (1 mm^3 dona) va shu bilan birga miyeloid/eritroid indeksi o'rganilgan.

Kimyoterapiyadan so'ng timus va suyak ko'migidagi morfologik o'zgarishlar hamda ularning biokorreksiyasi samaradorligini baholash maqsadida tajriba hayvonlari

21 sutkadan so‘ng, ertalab och qoringa, efir narkozi ostida dekapitatsiya usuli bilan jonsizlantirildi.

Ko‘krak qafasi ochilgandan so‘ng, timus to‘qimasi kerakli joylardan kesib olingan, suyak ko‘migi esa kalamush orqa oyog‘i naysimon suyaklaridan olingan. Timus va suyak ko‘migi to‘qimasi 10% neytral formalin eritmasida fiksatsiyalangan. Tegishli ishlov berilgandan so‘ng material parafin bloklarga joylashtirilib, kerosinga solingach, 3-5 mkm qalinlikdagi bo‘laklar tayyorlangan.

Tadqiqotda timus to‘qimasining umumiy morfologik tuzilishi gematoksilin-eozin va Van Gizon bo‘yash usullari yordamida o‘rganilgan, suyak ko‘migi esa azur-eozin bo‘yog‘i bilan tahlil qilingan.

Gematoksilin-eozin bo‘yash usuli ikki bosqichli bo‘lib, gematoksilin hujayra yadrolarini ko‘k-siyohrangga, eozin esa sitoplazmani qizg‘ish rangga bo‘yaydi.

Van Gizon bo‘yash usuli timus va suyak ko‘migi to‘qimasidagi biriktiruvchi elementlar va kollagen tolalar tuzilishini o‘rganish uchun qo‘llanilgan. Bu usulda kislota fuksini va pikrin kislotasi aralashmasi ishlatiladi: kislota fuksini kollagen tolalarni yorqin qizil rangga, pikrin kislotasi esa boshqa to‘qimalarni sariq rangga bo‘yaydi.

Azur-eozin bo‘yash usuli suyak ko‘migida granulyar hujayralar, miyeloid va eritroid elementlarni Gematoksilin-eozin bilan bo‘yashga nisbatan aniqroq ko‘rsatadi, shuningdek sitoplazma va yadro tuzilishini rang kontrasti orqali yaxshiroq ajratib beradi.

Immunogistokimyoviy tekshiruvlar Toshkent shahrida joylashgan “Ipsum Pathology” patomorfologik laboratoriyasi hamkorligida o‘tkazildi. Tadqiqotda CD-4 hamda CD-138 markerlaridan foydalanilgan. CD-4 markeri yordamida immun tizimining muhim hujayralaridan biri bo‘lgan T limfositlar yoki T helper hujayralar yuzasida joylashgan glikoproteinlar va CD-138 markeri orqali inson tanasidagi hujayra yuzasida joylashgan transmembranali glikoprotein ya‘ni asosan plazmatik hujayralar (immun tizimining antitel ishlab chiqaruvchi hujayralari) yuzasida uchrashi o‘rganilgan. Immunogistokimyoviy natijalarni baholash uchun QuPhat 4.4.0 dasturi yordamida morfometrik tekshirishlar 5 ta ko‘ruv maydonida 200-400 marta kattalashtirilgan holda bajarilgan. Ajratib olingan maydondagi pozitiv ekspressiyalangan hujayralar umumiy maydondagi ja‘mi hujayralarga nisbatan foizlarda hisoblab chiqilgan. Ekspressiyalanish darajasi 20% bo‘lganda (past darajadagi ekspressiya), 20-60% bo‘lganda (o‘rta darajadagi ekspressiya) va 60% dan yuqori bo‘lganda (yuqori darajadagi) ekspressiya deb baholangan.

Tadqiqot davomida olingan morfologik ma'lumotlarga matematik ishlov berish Microsoft Office ma'lumotlar paketining «Excel 7.0» dasturi orqali amalga oshirilgan. Shuningdek, STTGRAPH 5.1 dasturi yordamida o‘rtacha kvadratik og‘ish va reprezentativ xatolar aniqlangan.

Dissertatsiyaning **«Nazorat guruhi, kimyoterapiya qabul qilgan va korreksiyasidan so‘ng timus va suyak ko‘migining morfologiyasi bo‘yicha shaxsiy tadqiqot natijalari»** deb nomlangan uchinchi bobi tadqiqotda olingan natijalariga bag‘ishlangan bo‘lib, 3 ta kichik bo‘limdan tashkil topgan.

Ushbu bobning **“Nazorat guruhidagi oq zotsiz kalamushlar timusi va suyak ko‘migining morfologik xususiyatlari”** nomli birinchi bo‘limida morfologik tadqiqotlar uchun nazorat guruhidagi yangi tug‘ilgan, 2 va 4 oylik oq zotsiz kalamushlarning timus to‘qimasining qator morfologik parametrlari o‘rganilgan.


Nazorat guruhidagi yangi tug‘ilgan, 2 va 4 oylik oq zotsiz kalamushlar timusining

morfometrik ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida yosh ortishi bilan organ tuzilmasida bosqichma-bosqich morfologik yetilish jarayonlari kuzatilishi aniqlandi.

Yangi tug'ilgan nazorat guruhidagi kalamushlarda timus kapsulasi nisbatan yupqa bo'lib, darvoza sohasida $7,1 \pm 0,26$ mkm, oldingi qismida $5,9 \pm 0,29$ mkm va orqa qismida $7,1 \pm 0,31$ mkm ni tashkil etdi.

2 oylik kalamushlarda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $8,67 \pm 0,22$ mkm, $6,77 \pm 0,22$ mkm va $8,22 \pm 0,22$ mkm gacha ortib, kapsula tuzilmasining zichlashib borayotganini ko'rsatdi. 4 oylik nazorat guruhida esa kapsula qalinligi sezilarli darajada oshib, darvoza sohasida $12,53 \pm 0,22$ mkm, oldingi qismida $9,67 \pm 0,22$ mkm va orqa qismida $11,03 \pm 0,22$ mkm ga yetdi, bu timus stromasining yoshga bog'liq mustahkamlanishini aks ettirdi.

Timus trabekulalari qalinligi ham yosh o'tishi bilan ortib bordi. Yangi tug'ilganlarda kapsula osti sohasida $5,6 \pm 0,19$ mkm va markaziy qismda $7,6 \pm 0,21$ mkm bo'lgan bo'lsa, 2 oyliklarda mos ravishda $6,22 \pm 0,21$ mkm va $8,90 \pm 0,22$ mkm ga oshdi (1-rasm). 4 oylik kalamushlarda esa trabekulalarning qalinligi keskin ortib, kapsula osti sohasida $10,23 \pm 0,22$ mkm, markaziy qismda $13,41 \pm 0,22$ mkm ni tashkil etdi. Shu bilan birga, trabekulalarning uzunligi ham $118,1 \pm 0,23$ mkm dan $126,22 \pm 2,16$ mkm gacha, keyinchalik esa $210,31 \pm 2,16$ mkm gacha ortib, timus stromal karkasining faol rivojlanishini ko'rsatdi.



1-rasm. Nazorat guruhidagi 2 oylik oq zotsiz kalamush timusinining mikroskopik ko'rinishi. Bo'yoq: Gematoksilin-eozin. Ok. $10 \times$ Ob. 10.

**1-timus kapsulasi; 2-bo'lakchalarning po'stloq sohasidagi timositlar;
3-bo'lakchalarning mag'iz sohasidagi timositlar;
4-bo'lakchalararo to'siqdagi qon-tomirlar; 5-Gassal tanachalari.**

Qon tomir komponentlari tahlili trabekula arteriolalari devorining yosh bilan qalinlashishini ko'rsatdi. Proksimal va distal arteriolalar qalinligi yangi tug'ilganlarda $2,3 \pm 0,06$ mkm bo'lsa, 2 oyliklarda $2,61 \pm 0,05$ mkm ga, 4 oyliklarda esa $3,64 \pm 0,05$ mkm gacha oshdi. Qobiq trabekulalaridagi arteriolalarda ham xuddi shunday tendensiya kuzatilib, ko'rsatkichlar $1,9 \pm 0,04$ mkm dan $2,14 \pm 0,05$ mkm va $3,15 \pm 0,05$ mkm gacha ortdi. Venulalar qalinligi esa nisbatan sekin o'zgarib, qobiq trabekulalarida $1,1 \pm 0,04$ mkm dan $1,16 \pm 0,05$ mkm va $1,64 \pm 0,05$ mkm gacha oshgan bo'lsa, proksimal

va distal venulalarda sezilarli farq kuzatilmadi ($1,62 \pm 0,044$ mkm; $1,82 \pm 0,05$ mkm; $1,63 \pm 0,06$ mkm).

Parenximatoz komponentlar tahlili timusning funksional qayta tashkil topishini namoyon etdi. Yangi tug'ilgan kalamushlarda timositlarning asosiy qismi qobiq qavatda (75-85%) joylashgan bo'lsa, 2 oyliklarda bu ko'rsatkich 65-75% gacha kamaydi, 4 oyliklarda esa 55-60% ni tashkil etdi. Aksincha, mag'iz qavatdagi timositlar ulushi yosh o'tishi bilan ortib, 15-25% dan 30-35% va 40-45% gacha ko'paydi.

Limfositlar soni ham qatlamlar bo'yicha qayta taqsimlanish tendensiyasini ko'rsatdi. Qobiq qavatda limfositlar soni yangi tug'ilganlarda 300-350 tani tashkil etgan bo'lsa, 2 oyliklarda 250-300 taga, 4 oyliklarda esa 200-230 tagacha kamaydi. Shu bilan birga, mag'iz qavatda limfositlar soni aksincha ortib, 90-120 tadan 120-150 taga va 160-180 tagacha ko'paydi (1-jadval).

1-jadval

Nazorat guruhidagi yangi tug'ilgan, 2 va 4 oylik oq zotsiz kalamushlar timusi morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsifi (mkm)


Ko'rsatkichlar Guruhlar		Nazorat guruhidagi yangi tug'ilgan kalamushlar	2 oylik nazorat guruhidagi kalamushlar	4 oylik nazorat guruhidagi kalamushlar
Timus kapsulasi qalinligi	Darvoza sohasida (mkm)	$7,13 \pm 0,26$	$8,67 \pm 0,22^*$	$12,5 \pm 0,22^*$
	Oldingi qismida (mkm)	$5,92 \pm 0,29$	$6,77 \pm 0,22^*$	$9,67 \pm 0,22^*$
	Orqa qismida (mkm)	$7,14 \pm 0,31$	$7,60 \pm 0,22^*$	$10,63 \pm 0,22^*$
Timus trabekulalari qalinligi	Kapsula osti sohasida (mkm)	$5,63 \pm 0,19$	$5,67 \pm 0,22^*$	$9,53 \pm 0,22^*$
	Markaziy qism (mkm)	$7,62 \pm 0,19$	$8,47 \pm 0,22^*$	$12,44 \pm 0,22^*$
Timus trabekulalari uzunligi		$118,1 \pm 0,23$	$126,22 \pm 2,16$	$205,63 \pm 2,16$
Timositlar	Qobiq qavatda	$50,04 \pm 0,19$	$66,50 \pm 0,54$	$56,91 \pm 0,54$
	Mag'iz qavatda	$28,13 \pm 0,19$	$33,50 \pm 0,54$	$43,09 \pm 0,54$
Limfositlar	Qobiq qavatda	$154,3 \pm 0,31$	$265,33 \pm 5,40$	$210,01 \pm 3,24$
	Mag'iz qavatda	$94,12 \pm 0,19$	$128,33 \pm 3,24$	$165,31 \pm 2,16$

Izoh: $*p < 0,05$ – oldingi guruhga nisbatan ishonchlilik darajasi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, yangi tug'ilgandan 4 oylikka o'tgan davrda timusning asosiy morfometrik ko'rsatkichlari o'rtacha 1,3-1,6 martaga oshgan, qon tomirlar devorlari kattalashgan, ichki diametri kengaygan. Biroq po'stloq (kortikal) qavatida limfositlar soni kamayib, mag'iz qavatida ko'payishi bilan timusning ichki tuzilishida differentsiatsiya jarayoni kuchaygani namoyon bo'lgan.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, oq zotsiz kalamushlarda ham yosh davrlariga qarab suyak ko'migidagi hujayraviy tarkibda sezilarli o'zgarishlar kuzatilganligi aniqlangan. 2 oylik kalamushlarda suyak ko'migi hujayraviy tarkib jihatdan faol, miyeloid va eritroid qator hujayralari mutanosib rivojlangan. 4 oylik

davrga kelib esa, sitologik ko'rsatkichlarda ayrim mutanosibliklar va funksional yetilish belgilarining kuchayishi kuzatilgan (2-rasm).



2-rasm. Nazorat guruhidagi 2 oylik oq zotsiz kalamush suyak ko'migining sitomorfologik ko'rinishi. Bo'yoq: Azur-eozin. Ok. 10 × Ob. 100.



1-Limfosit; 2-Eritroblast; 3-Trombosit; 4-Gemoretikulosit.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2 oylikdan 4 oylikka o'tgan kalamushlarda suyak ko'migi sitologik ko'rsatkichlarida yoshga xos dinamik o'zgarishlar kuzatilib, xususan, nazorat guruhidagi 4 oylik oq zotsiz kalamushlar suyak ko'migining sitologik ko'rsatkichlarini 2 oylik oq zotsiz kalamushlarga nisbatan tahlil qilganimizda miyeloid qator hujayralar soni 15,75% ga, eritroid qator hujayralar soni 1,9% ga, limfoid hujayralar soni 22,57% ga, megakariositlar soni 64,49% ga, miyeloid /eritroid indeksi esa 29,17% ga oshganligini aniqlangan. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, suyak ko'migidagi hujayraviy tarkibning qayta tuzilishi yoshga bog'liq holda kechadi va bu o'zgarishlar organizmning fiziologik rivojlanishi hamda immun-gematologik tizim faoliyatida muhim o'rin tutadi.

“Tajribaviy kimyoterapiyadan so'ng kalamushlar timus va suyak ko'migidagi morfologik o'zgarishlar natijalari” deb nomlangan ikkinchi bo'limda tadqiqot natijalari yoshga qarab tavsiflanib, kimyoterapiya ta'siridan keyingi sharoitda 2-4 oylik oq zotsiz kalamushlarning timus va suyak ko'migida yuzaga kelgan o'zgarishlar hamda morfometrik va sitologik parametrlar batafsil tahlil qilingan.

